

## **Oncomorphology.**

### **Lecture-9. Organ-specific epithelial tumors**

**Lecturer: Avazbek Mamataliyev Ro'zuvaevich., Docent, Candidatus  
Medicinae**

#### *Nazorat savollari*

#### *Assignment*

1. O'pka raklarini makroskopik joylashuvi bo'yicha turlarini sanang?
2. Buyrak tubulyar adenomasining xavflilik darajasi qanday?
3. M.F.Glazunov taklifi bo'yicha tuxumdon kistoz o'smalarining turlari?
4. Sut bezini "yorug' hujayralari" xarakteri:
5. Yo'g'on ichak raklariga qaysilar kiradi?

#### *Javoblar:*

#### **1. O'pka raklarini makroskopik joylashuvi bo'yicha turlarini sanang?**

- ✓ ildiz yoni raki (stvol, o'pka bo'lagi va segmentar bronxlarning boshlangich qismidan o'sib chiqadi, mediastinal, markaziy rak)
- ✓ periferik rak (segmentar bronxlarning periferik qismidan, mayda tarmoqlaridan, alveolyar epiteliydan)
- ✓ aralash (massiv) rak.

#### **2. Buyrak tubulyar adenomasining xavflilik darajasi qanday?**

Tubulyar adenoma po'stloq qatlamida joylashadi, kanalchalar epiteliysidan o'sib chiqadi, ba'zan kistoz kengayadi, epiteliy kistalari so'rg'ichsimon ko'rinishda o'sib ketishi mumkin (papilyar kistadenoma). Bu o'sma malignizasiyaga moyil bo'ladi.

#### **3. M.F.Glazunov taklifi bo'yicha tuxumdon kistoz o'smalarining turlari?**

- a) seroz, silioepitelial o'smalar
- b) psevdopusinoz o'smalar

v) dimorf, aralash “seroz-pseudomusinoz” kistoz o’smalar

#### **4. Sut bezini “yorug’ hujayralari” xarakteri:**

Pejjet hujayralari xech qachon dermaga o’sib kirmaydi. Bu rak mayda va yirik naylarni epitelisidan rivojlanib, skirr, bo’jamasimon va kribroz rak tuzilishida bo’ladi.

- 1) so’rg’ich va areolalarni ekzemasimon shikastlanishi
- 2) so’rg’ich va areolalar epidermisida yorug’ hujayralarni borligi
- 3) sut bezi nayini raki

#### **5. Yo’g’on ichak raklariga qaysilar kiradi?**

Yo’g’on ichak raklari ko’r ichak, jigar burchagi, sigmasimon va to’gr’i ichakda kuzatiladi. Ko’proq to’gr’i ichakda kuzatilib, makroskopik manzarasi turlicha bo’ladi (serbar, qo’ziqorinsimon, dumaloq yara, sirkulyar fibroz xalqa ko’rinishida va x.). emirilganda yaralar xosil bo’ladi.

#### *Test savollari*

##### **1. Sut bezi raki qaysi to’qimalardan rivojlanadi**

- A) limfa tugunlardan
- B) sut kanallari bezli epiteliasidan
- C) qon tomirlardan
- D) silliq yoki kundalang targ’il mushaklardan

ANSWER: B

##### **2. Sut bezi rakida metastaz berish yo’llari**

- A) gematogen va limfogen
- B) gematogen
- C) limfogen
- D) implantatsion

ANSWER: A

##### **3. Sut bezi raki bilan kasallanish eng kam qaerda uchraydi**

- A) azerbayjanda
- B) gruziyada
- C) turkmaniston
- D) rossiyada

ANSWER: C

##### **4. Assit va plevrit quyidagi yomon sifatli tuxumdon o’smasiga xos**

- A) disgerminoma
- B) seroz sistadenokarsinoma
- C) granulez xujayrali o’sma
- D) androblastoma

ANSWER: B

**5. Tuxumdon raki ko‘proq qaysi bosqichda aniqlanmoqda?**

- A) III va IV bosqichda.
- B) I bosqichda.
- C) II bosqichda.
- D) I-A bosqichda.

ANSWER: A

**6. Tuxumdon raki rivojlanishida qaysi omillar kiradi?**

- A) jinsiy sheriklarni tez-tez almashishi
- B) erta menarxe
- C) irsiy omil
- D) jinsiy xayotni erta boshlash

ANSWER: C

**7. Tuxumdon rakini kaysi kasalliklar bilan differentsiatsiyasi?**

- A) tuxumdon kista va kistomalari
- B) surunkali kolit
- C) sut bezi fibroadenomasi
- D) bachadon bo‘yni eroziyasi

ANSWER: A

**8. Tuxumdonlar nofunktsional kistasi bu:**

- A) follikulyar
- B) seroz kista
- C) sariq tana kistasi
- D) endometrioid

ANSWER: B

**9. Tuxumdonlar yomon sifatli o‘smalariga qaysi o‘sma kirmaydi.**

- A) papillyar sistadenokarsinoma
- B) seroz sistadenokarsinoma
- C) seroz sistadenoma va tekoma
- D) endometrial sistadenokarsinoma

ANSWER: C

**10. Yomon sifatli disgerminomaga xos metastaz berish yo‘llari bu:**

- A) limfogenmatogen
- B) limfogen
- C) gematogen
- D) seroz bo‘shliqlar bo‘ylab (implantatsion)

ANSWER: A